



INDIVIDUAL MASHG'ULOTLARDA O'QUVCHILARNI IJODIY QOBILIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA TASVIRIY SAN'AT DARSLARINI RIVOJLANTIRISH

Boymirzayeva Shaxnoza Isroil qizi

Namangan davlat universiteti "tasviriy va amaliy bezak san'ati" fakulteti 2 – kurs magistratura talabasi
shaxnoza11@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6468457>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-aprel 2022

Ma'qullandi: 10-aprel 2022

Chop etildi: 15-aprel 2022

KALIT SO'ZLAR

Tayanch. Iboralar. Tasviriy san'at, Natura, amaliy bilimlar, asar taxlili.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'lim texnologiyasi bo'lajak yosh tasviriy san'at fani o'quvchilarini, kasbiy va amaliy mashg'ulotlarda eng muhim bo'lgan ko'nikma, bilim, malakalarini rivojlantirish ularda amaliy darslarda qo'l keladigan texnologiyalardan samarali foydalanishdagi muhim masalalarga qaratilgan.

Ijodkorlik- sifat jihatdan yangi, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratuvchi inson faoliyati jarayoni. Ijodkorlik o'zida insonning mehnatda namoyon bo'lgan qobiliyatini ifodalaydi. Ob'ektiv olam qonuniyatlarini bilish asosida xilma-xil ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantiradigan yangi haqiqatni yaratadiganday mehnat ijod bo'lishi mumkin. Ijod turlari bunyodkorlik faoliyati bilan belgilanadi: ixtirochi, tashkilotchi, mehnati ilmiy va badiiy mehnat va boshqalar. Ijodiy faoliyat uchun imkoniyatlar ijtimoiy munosabatlarga bog'liq. Bugungi kunda mustaqillik tufayli amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari o'z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, texnika, san'at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog'liq. Shunga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti talabalaridan kelib chiqqan holda har bir o'quvchini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va zarurdir.

San'atning eng qadimiy va keng tarqalgan turlaridan biri- tasviriy san'atdir. Birinchi rasm asarlari qadimgi davrlarga tegishli bo'lgan, ular qadimgi odamlar g'orlarining devorlarida topilgan va juda ham qadimiy hisoblangan. Tasviriy san'at inson ongiga tezda ta'sir etib, unda ezgu hislar uyg'otadigan, kishini ruhlantirib, ma'naviy olamine boyitadigan san'atdir. Umuman yuqorida aytib o'tilganidek, san'at olami keng qamrovli hisoblanib, hozirgi kunga kelib, zamonaviy o'qituvchi yoshlarni bilim, malaka va ko'nikmalarini asosan dars davomida shakllantirib amalga oshirishimiz lozim. Agar har bir o'qituvchi rasm chizishni bilganda edi, ular dars berishda yuksak samaralarga erishardi, dars mashg'ulotlarini o'zlashtirish ham o'quvchi uchun juda oson va yengil bo'lardi, hatto o'zlashtirishi past o'quvchini bo'lishi ancha qiyin bo'lardi. Shularga ko'ra bugungi maktab o'quvchilariga badiiy bilim va malaka berishga katta e'tibor

berilmoqda. Tasviriy san'at darslarida asosan san'atni va borliqni estetik idrok qilish yo'llarini o'zlashtiradi. Bu fan orqali o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini, ko'rish xotirasini, estetik hissiyotlari hamda asosiy ijodiy tafakkuri rivojlanib boradi. Dars jarayonida yangicha zamonaviy interfaol usullar va texnologiyalardan foydalangan holda ularning faolligini oshirish lozim. Usul – biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish tartibi. Voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l yo'riklar, San'atni turlari ko'p o'quvchilarda estetik va qobiliyatlarini rivojlantirishda tas-viriy san'atni



takomillashtirish va qobiliyatni rivojlantirish zarur.

Tasviriy san'atda o'quvchilarga nafaqat nazariy jihatidan balki, amaliy mashqlarda ham rang tasvir fanlarining ahamiyati nechog'liq muhimligini ko'rishimiz mumkin. Dars mashg'ulotlarida iloji boricha har yangi mavzuga kerakli qurollarni misollar orqali tushuntirganimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi o'quvchi kelajakda ishchi, xizmatchi, dizayner, muhandis, shifokor, o'qituvchi, yurist yoki harbiy mutaxassis yoki boshqa biron bir

falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usulidir. Inson faoliyatining barcha sohalarida tegishli usullardan foydalaniladi. Bu usullarning eng umumiy belgisini hisobga olgan holda ularni borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish operastiyalarining yoki yo'llarining yig'indisi deyish mumkin. Biror ishni bajarish usulini egallagan inson shu ishni boshqalarga nisbatan tez va juda oson bajara oladi. Usulni ya'ni egallamagan inson esa bu ishni bajarish uchun ko'p vaqt sarflaydi.



sohani yaratuvchisi bo'ladilar. Ularni har biri uchun rasm chizish, undan foydalanish lozim bo'ladi. Har qanday oddiy, asbobtexnika vositalarini ishlatish va ularni sozlash uchun ham grafik bilim va malakalar kerak bo'ladi. Shu boisdan har bir kishi rasm chizishni, grafik tasvirlarini bilishi maqsadga muvofiqdir. Hayotda inson uchun muvaffaqiyatning asosiy sirlaridan biri, qulay vaziyat kelganda undan foydalanmoqlikka tayyor turishdir. Shunday ekan har doim o'qituvchi



o'quvchining qiziqishi, qobiliyatini hisobga usul va
olib, darslarda didaktik, noan'anaviy, yangi
g'oyaga asoslangan holda, ularning ijodiy
faolligini oshira bilishi va mustaqil kasbga
yo'llay bilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Boymetov B. Qalamtasvir. Darslik "Musiq" nashriyoti -2006.
- Boltaboevich, B. B. (2020). Formation of the skills of portraying the future teacher of fine arts in pencil drawing. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal,
- 2.Халилов Р. Рисунок, Издательство «Навруз» -2013.
- 3.Paul Thomas, Anita Taylor. Drawing, London-2011
4. Boymetov B «Qalamtasvir» Pedagogika institutlari va universitetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 1997.
5. Tojiyev B, Mahkamova S. "Qalamtasvir" (dastlabki saboqlar). Metodik qo'llanma. Toshkent, 2013.
6. Brington Barber "Full course of the drawing", Barselona-2014
7. Boltaboevich, B. B. (2020). Formation of the skills of portraying the future teacher of fine arts in pencil drawing. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal,